



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

THE ROLE OF LANDSCAPE AND PORTRAIT WITHIN THE FRAMEWORK OF POSTMODERNIST INTERPRETATION

M.F. Ashiraliyeva

Lecturer at the Samarkand State Pedagogical Institute
Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: postmodernism, landscape, portrait, polyphony, artistic concept, character psychology, nature depiction, tragedy, character interpretation.

Received: 19.11.25**Accepted:** 20.11.25**Published:** 21.11.25

Abstract: This article analyzes the role of landscape and portrait in the postmodern interpretation of the novel “Qo‘rg‘onlangan oy.” In the work, landscape functions not merely as a descriptive element but as a key poetic device that reflects the protagonist’s psychological depth, spiritual decline, and movement toward tragedy. Murtazo’s moral degradation, the disruption of natural harmony, and the multi-layered polyphonic structure used to depict these processes form the novel’s central aesthetic core. Through the interplay of nature, human destiny, and historical memory, the landscape reinforces the artistic concept and exposes the philosophical foundation of the narrative.

POSTMODERNISTIK TALQIN QAMROVIDA PEYZAJ VA PORTRETNING O‘RNI

M.F. Ashiraliyeva*O‘qituvchisi*

Samarqand davlat pedagogika instituti
Samarqand, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: postmodernizm, peyzaj, portret, polifoniya, badiiy konsepsiya, qahramon ruhiyati, tabiat tasviri, fojeaviylik, xarakter talqini.

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Qo‘rg‘onlangan oy” romanida peyzaj va portretning postmodernistik talqindagi o‘rni tahlil qilinadi. Asarda tabiat tasviri qahramon ruhiyati, uning ichki evolyutsiyasi va fojeaga tomon siljishini aks ettiruvchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Murtazoning

nafsga berilishi, tabiat bilan uyg'unlikning buzilishi va bu jarayonning polifonik ko'pqatlamlilik orqali ifodalanishi roman mazmunining asosiy estetik yadrosini tashkil etadi. Tabiat va inson, tarixiy xotira va individual taqdir uyg'unligida peyzaj badiiy konsepsiyani mustahkamlaydi hamda asarning falsafiy mohiyatini ochib beradi.

РОЛЬ ПЕЙЗАЖА И ПОРТРЕТА В РАМКАХ ПОСТМОДЕРНИСТСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

М.Ф. Ашираниева

Преподаватель

Самаркандского государственного педагогического института

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: постмодернизм, пейзаж, портрет, полифония, художественная концепция, психология героя, изображение природы, трагизм, интерпретация характера.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль пейзажа и портрета в постмодернистской интерпретации романа «Қўрғонланган ой». В произведении пейзаж выступает не просто элементом описания, а важным поэтическим средством, раскрывающим психологическое состояние героя, его внутреннее падение и движение к трагедии. Нравственная деградация Муртозо, нарушение гармонии природы и полифоническая многослойность, через которую изображаются эти процессы, составляют эстетическое ядро романа. Взаимосвязь природы, человеческой судьбы и исторической памяти усиливает художественную концепцию произведения и раскрывает его философскую сущность.

Kirish. Romanchilik an'anasida shunday tasvir usullari borki, unda xarakterni to'laqlonli va tayyor holda tasavvur qilish imkoni tug'iladi. Eslang, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Otabekning ruhiyatini va uning xarakterini birgina portret tasviri orqali o'qirmanga tanishtirish sahnasini, bunday paytda qahramonning tug'ilishi, nasl-nasabi, maslak-muddaosi, ota-bobolari kimligi, qayerda o'qiganligi, nima ishlar bilan mashg'ulligi batafsil yoritiladi yoki aksincha. Ayni shu pallada xarakter qirralari ham sekin-asta ochila boshlaydi. Syujet elementlarining izchilligi saqlanadi. Voqealar ketma-ket ro'y beradi. Ba'zi asarlarda esa buning teskari tomoni bo'lishi mumkin. Amerika adabiyotining yirik vakili E.Xemingueyda esa dialogik munozaralarda qahramon xatti-harakati, ularning o'zaro muloqot shakllari, yozuvchining o'zi yaratgan qahramonlarga munosabati, yashash tarzi kabi o'nlab holatlar portret, peyzaj, xarakter

to'laqonliligini ta'minlashga xizmat qiladi yoki shu tariqa ifodalaniladi. O'zbek adabiyotining yirik vakili A.Qahhor, Sh.Xolmirzaev hikoyalarida esa syujetning bosh figuranti – tugun! Voqelik tugundan boshlanib, konflikt sari ildamlaydi. Qahramon Evropa novellistlari singari sahnaga tayyor holda olib chiqiladi. Har bir epizodik bo'ladimi, qahramonlar tizmasi o'z rollarini qoyilmaqom qilib bajarib, sahnani tark etadilar. Ayrim yozuvchilar tabiat tasviri bilan boshlab, shu tariqa syujet va kompozisiya muvofiqligini ta'minlaydilar. Masalan, rus adibi M.Sholoxovning "Tinch Don" epopeyasini olib ko'rsangiz ham, Grigoriyning qanday yigit yoki qahramon ekanligini tabiat tasviri negizida bilib olamiz. Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar", Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar", Nazar Eshonqulning "Tun panjaralari" kabi roman va qissalarda dastavval voqelik tabiat tasviri orqali nima ro'y beradi-yu, nima haqida so'z boradi bilib olish mumkin. Shoyim Bo'taev ham mana shu tasvir negizida ko'plab asarlarini yorqin ranglarda idroklay olgan. Istaymizmi yo'qmi, har bir individ shaxs tabiat farzandi. Yozuvchining ko'plab asarlarida tog'u dashtlar va u erda umrguzaronlik qilayotgan odamlar taqdiriga ro'baro' kelasiz. Ayniqsa, "Qo'rg'onlangan oy" romanidagi polifonik nutq tabiati shunday deyishmizga asos beradi. Pof Z.Pardaeva qayd etishicha: "O'g'lining qo'lini halollashdan ko'ra to'y qilib, hammaga kimligini ko'rsatib qo'yish xohishi Murtazoning fojyaviy taqdiridan darak beradi, bo'rilarining to'yga atab boqqan qo'ylarini chavaqlab tashlashi ham uning ko'zini ochmaydi. Bo'rilarining qo'ylarga tajovuz qilishi, aslida Murtazoga tajovuz qilib kelayotgan tabiatning ogohlantirishi edi. Nafsning quliga aylangan Murtazo jonivorlarni qirishi natijasida tabiatdagi mutanosiblik buziladi. Och qolgan bo'rilarining tap tortmay qishloqqa oyoq qo'yishi ham yovuzlik Murtazo ongini boshqa holatga o'tib, urchishi orqali polifonik ko'pqatlamlilikni keltirib chiqaradi. Yozuvchining badiiy mahorati shundaki, tabiat uyg'unligi falsafiy mohiyatidan polifonik tagma'nolik mantiqi kelib chiqadi". Binobarin, mazkur manbaga qo'shimcha tarzda shuni qayd etish kerakki, Murtazo Anna bilan o'zaro yaqinligi ham, tog'lik Mazbut muallimning kutib olishi sayg'oqlar galasiga ro'baro' kelishi, ov qilishi, shoir bilan tanishishi – nafs ketidan borayotgan yo'lning davomi sifatida namoyon bo'ladi. Mana shu lavhalarda Murtazoning asl maqsadi fosh bo'ladi. Tabiatga qilinayotgan nafs zulmi orqasida ulkan fojea sari tashlanayotgan qadamlarning nihoyasidek tuyuladi. Bu yerda yozuvchi atayin to'qima epizodlar kiritgan. Shunday bo'lsa ham, syujetni mantiqan bir-biriga bog'lab, kompozision yaxlitlikni yuzaga chiqishiga zamin hozirlagan:

"Oy urog'i to'lqinlar ustidagi kemadek qalqib-qalqib goh bulutlar qavatiga kirib yuqolar, goh keng osmon sahniga sirg'alib chiqib kezinardi. Yolg'iz Qorabosh oyga tumshug'ini cho'zganicha uzoq uvladi. U yo'l ustidagi tasodifiy to'qnashuvdan keyin qalbini tark etmayotgan qo'rquv tuyg'usi allaqanday sarsari ruhlar kezingan bu g'orda hech qachon o'ziga tinchlik bermasligini his etdi. Yolg'iz najot - u, albatta, o'zining azaliy hayot tarziga qaytishi lozimligida

edi, buning uchun tog'dan adirga enib sayg'oqlarni uchratib qolishiga umid bog'ladi. Uning ko'zlari yonar, vujudi dastlab ovga chiqqanidagi kabi qorishiq hislar iskanjasida dag'-dag' titrar, yo hayot, yo mamot, deya boyoqish bo'ri kabi yashlashga mahkum etilgan edi. U adir tomon yura boshladi. Bu choqda qorishiq hislar iskanjasidagi boshqa bir zot, bunisi odam naslidan bo'lgan Murtazo ham kunduz kunidagidan ko'ra ham hushyorroq, barcha sezgilari bedor holda quloqlari ding bo'lgancha soy bo'yida choponiga o'ranib yotgancha nimanidir intiq kutardi. Nihoyat, uzoqdan bir juft chiroq balqib ko'rindi. Murtazo bugun kunduz kuni televizor antenasi to'rt yillar chamasi vaqt davomida ko'tarib turgan, yo'g'onligi ketmon dastasidek keladigan olti metrlik quvurni Ibrohimning mashinasi kuzoviga sim-gaykalar, kalit-ombirlar bilan qo'shib ortib yuborayotganida va'dasini yana bir bor olgan bo'lsa-da, uning kelish-kelmasligiga hamon gumoni bor edi. Uzoqdagi mashina chiroqlari uning gumonlarini to'zg'itib yubordi.

Mana shu lavhaning o'ziyoq, romandagi asl maqsadning hosil bo'layotganiga – fojeaning o'z tasdig'ini topayotganiga shahodat beradi. Qadrdon hamkasbi Ibrohimning yarim tunda kelishi va tog' yon-bag'irlarida sang'ib yurgan bo'rilar va ular ham o'z nafsi ketidan sayg'oqlar galasini kutayotgani tasvirlanadi. Murtazo ming hiyla bilan bo'rilar ham yengib, odamiy aqli bilan sayg'oqlarni qo'lga kiritadi. Romanni yetib kelgan voqeligi shu yerda xotima (echim) tomon siljiyshga yo'l beradi. Murtazoning o'ttiz yettita sayg'oqni ovlashi va qulog'i og'ir qassob O'lmas akani uyiga olib boradi. Shu tariqa Murtazo yovuzlik ramziga aylanib ulguradi. Tabiat ham anoyi emas, uning har bir xatti-harakatiga munosib javob topib berishga tayyor! Murtazo esa yovuzlikning qay tariqa namoyon bo'lib borayotganiga sira parvo qilmaydi. "Men"lik xususiyati Murtazoni abadiy fojeliq cho'g'iga uloqtirib yuboradi.

Badiiy asarda peyzaj haqida so'z borganda, "Peyzaj (fr. Paysage – joy, yurt) adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon - interer) tasviri. An'anaga ko'ra, peyzaj deyilganda, tabiat tasviri tushuniladi, lekin bu xil tushunish birmuncha torroq. Chunki peyzaj nafaqat tabiatni (agar bu so'z ostida birlamchi tabiat tushunilsa), balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko'zda tutadi. Shu ma'noda, masalan, biron-bir xiyobon yoki shahar ko'chasining tasviri ham peyzaj, xolbuki, ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir. Yozuvchi peyzajni voqealar rivojini to'xtatib qo'yguncha mufassal tasvirlashi (statik P), yoki unga taalluqli detallarni voqealar davomida berib borishi (dinamik P.) mumkin. Asarda peyzaj bajaruvchi birlamchi funksiya voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir. Biroq uning asardagi funksiyalari bu bilan cheklanmaydi, u polifunksionallik xususiyatiga ega. Jumladan, peyzaj qahramon ruhiyatini ochish vositasi sifatida keng qo'llaniladi". Darhaqiqat, roman poetikasida peyzajning nihoyatda o'rni katta. Chunonchi, yozuvchi bir vaqtning o'zida voqelikni bayon qiluvchi, ham xarakterni ochib beruvchi, ham asar konsepsiyasini tartiblashtiruvchi ko'p qirrali roviy sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, peyzaj

tasviridan mahorat bilan foydalanadi. Mana shu jihatlarga teran nazar tashlaydigan bo'lsak, "Qo'rg'onlangan oy" nomlanishining o'ziyoq romantik bo'yodkorlik bilan tabiatning bir jismini namoyon qilimoqda. Murtazo ham ana shu qalbu shuuri qo'rg'onlangan, jamiyatda o'z o'rnini topolmay sarson-sargardon kezingan qahramon sifatida gavdalanadi. Natijada, uning orzulari ham, maqsadlari ham ro'yobga chiqmaydi. Tabiatga qanchalik zulm qilsa, tabiat ham undan shunchalik kam bo'lmagan holda o'ch oladi. Nafsning bandalari singari roman syujetida fojeaviy qahramon tarzida halok bo'ladi. Ruhning halokatga uchrashi tiriklikning nashidasi emas. Roman ana shu maqsadni ifodalash uchun yozilganligi ayonlashadi:

"Ta'qdir shamoli bir mahallar cho'lu biyobonlar bag'ridagi tupkaga eltib tashlagan laqaylar bora-bora ko'payishib, suzoqliklar bilan urug'-aymoqlashib qo'shilishib ketdi. Rahmatli Husniya kampirning janozasida Ubaydilla chavandoz, Chimkentdan kechagina kelgan ekan, deganida ham uning o'sha Suzoqdagi qizirikiga borib kelganini nazarda tutgandi. Qozoqlaru laqaylar qaynatsa qoni qo'shilmaydiganlardan emas, endi o'rtaqaynarliklarning ham ko'ngli o'sha tomonlarga bot-bot tortib turadigan bo'ldi. Ubaydilla chavandoz ham u erga ko'p borgan. Urug'doshlarini bu gal xabar olishda Suzoqqa Murtazoni ham etakladi. Murtazo yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurishdan zerikdi. Yer yuzi juda keng ekan-da, dunyoning narigi chekkasiga chiqib ketdig-ov, deb o'yladi. Biroq, u o'ylaganchalik bu joylar juda ham narigi chekka emas ekan. Aksincha, o'rus og'alar, Chernyayev degan tumanboshi Toshkentni bosib olguncha bot-bot Suzoqqa chekinib turgan ekan. Toshkentliklar ham bu tumanboshi dunyoning narigi chekkasiga chiqib ketdi, endi qaytib kelmaydi, deb ko'ngillari xotirjam bo'lib, ortidan borishmas ekan. U bo'lsa, nafaqat qaytib kelibdi, o'z nomini abadul-abad qoldirib ketibdi. Mahallamas, qishloqmas, bus-butun shaharni uning nomi bilan atashibdi, shu tumanboshiyam unutilib ketmasin, bot-bot yodga tushib tursin, qon to'kkani-to'kmagani uchun xudoning dargohida javob berar, ammo o'z davri uchun nimalarnidir qilgan-ku, deyishibdi.

Murtazoga bu yerlar yoqdi. Dalalarning kengligini ko'z ilg'amas edi. Ufqqacha bir tekis jing'ilu saksovulzor dasht yastangan. Chappor urib daydibadal shamollar o'ynaydi. Ba'zi-ba'zida o'rkachlarini lo'killatib, tumshuqlarini oldinga cho'zib tuyalar galasi ko'rinib qoladi. Tuyalar moziy bag'ridan chiqib kelayotganga, o'rkachlarida o'tmish haqidagi barcha haqiqatlarni yashirib kelajakka qarab olib ketayotganga o'xshab ko'rinishadi".

Keltirilgan lavhada Murtazo va Uning qaynatosi Ubaydulla chavandoz orasida bo'lib o'tgan qisqa suhbatda yanada jonlanadi. Romandagi qabila-urug', ovul va elatlar nomlarining keltirilishi ham aslida – tabiatga tashna odamlar ruhiyatini idroklashga qaratilgan. Alaloqibat inson o'z tabiatiga, ibtidosiga qaytishga majbur degan ramziy bir tushuncha ham mavjud. Shunday ekan, sobiq ittifoq davridagi holatga kelishning hamda bu tariqa hayot kechirishning ilk ildizlari bosqinchi Chernyayevning ham tarix sahifalarida qora nom bilan qolishini ta'kidlash ekanligi

ayonlashadi. Romanda biror bir voqelik yo‘qki, bir-birini to‘ldiruvchi ahamiyat kasb etmasa. Ana shu timsollar negizida yozuvchi o‘zining asl ijodiy niyatini ikdroklamoqda. “Murtazoga bu yerlar yoqdi. Dalalarning kengligini ko‘z ilg‘amas edi. Ufqqacha bir tekis jing‘ilu saksovluzor dasht yastangan” kabi yozuvchi qahramon ruhiyatidagi tabiatga, dasht manzaralariga moyilligini ham ma’qullab qo‘ymoqda. Roman muqaddimasida afsona va rivoyatlar roman xotimasiga qadar yozuvchi ijodiy konsepsiyasini tashuvchi fragmentlar sifatida xizmat qiladi. Bunday usul Ch.Aytmatov, A.Muxtor ijodida ham turli bo‘yoqlarda ifodalanadi.

“Qo‘rg‘onlangan oy” romanidagi peyzaj va portret tasvirlari postmodernistik talqinda an’anaviy badiiy funksiyadan kengayib, ko‘p ma’noli, polifonik mazmun yuklaydigan vositaga aylanadi. Asarda tabiat tasviri shunchaki manzara emas, balki qahramon ruhiyatining in’ikosi, uning ichki buzuqligi va nafs girdobiga botishini ko‘rsatib beruvchi semantik maydondir. Murtazoning har bir harakati tabiatdagi izdan chiqish, mutanosiblikning buzilishi orqali ifodalanadi va shu tariqa voqelikning asl dramtizmi ochiladi.

Romanda peyzaj syujetni to‘xtatuvchi tasvir emas, balki voqealar harakatini tartibga soluvchi, xarakter ochilishini teranlashtiruvchi, asarning falsafiy qatlamini shakllantiruvchi estetik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Tabiat obrazlari Murtazoning fojeaviy qismatiga doimiy hamroh bo‘lib, insonning o‘z ildiziga, ibtidosiga qaytishi lozimligi haqidagi ramziy g‘oyani yoritadi. Shuningdek, tarixiy ishoralar, qabila va elatlar haqidagi ma’lumotlar ham bir butun konsepsiyaning polifonik tuzilishiga xizmat qiladi.

Natijada romanda peyzaj, portret va ichki monologlar postmodern adabiyotga xos – voqelikning ko‘p qatlamlilikini, timsollar orqali fikrni anglatish, an’anaviy kompozitsiyaning qayta talqinini yuzaga keltiradi. Murtazoning halokati esa nafaqat individual fojea, balki tabiat va inson o‘rtasidagi buzilgan uyg‘unlikning muqarrar oqibati sifatida talqin etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodiriy, A. O‘tkan kunlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. (1983).
2. Qahhor, A.. Hikoyalar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. (1979)
3. Bo‘taev, Sh. Qo‘rg‘onlangan oy. Toshkent: Yangi asr avlodi. (2008).
4. Hamdam, U. Sabo va Samandar. Toshkent: Yangi asr avlodi. (2006).
5. Eshonqul, N. Tun panjaralari. Toshkent: Yangi asr avlodi. (2007).
6. Hemingway, E. The Old Man and the Sea. New York: Scribner. (1952).
7. Aytmatov, Ch. Asrga tatigulik kun. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot nashriyoti. (1988).
8. Pardaeva, Z. Polifonik nutq va badiiy tafakkur masalalari. Toshkent: Fan. (2018).

9. Nazarov, B. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: Universitet nashriyoti. (2012).
10. Yoʻldoshev, Q. Badiiy asarda xarakter yaratish mahorati. Toshkent: Fan. (1991).
11. Eshonqulov, D. Adabiy jarayon va modernizm poetikasi. Toshkent: Akademya nashr. (2016).
12. Karimov, A. (2015). Peyzaj va interyerning badiiy funksiyasi. Adabiyotshunoslik masalalari, (3), 40–47.
13. Quronov, D. Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lugʻati. Toshkent: Akademya nashr. (2010).
14. Abdullayeva, N. Oʻzbek romanlarida peyzajning badiiy funksiyasi. Til va adabiyot taʼlimi, (2), 55–60. (2020).
15. Hasanov, O. Roman kompozitsiyasida tasvir va voqelik uygʻunligi. OʻzMU Ilmiy axboroti, (4), 87–92. (2019).
16. Joʻrayeva, M. Shoyim Boʻtaev romanlarida polifonik nutq. Filologiya fanlari boʻyicha ilmiy maqolalar toʻplami, 5(1), 121–127. (2021).